




JAMOAT SALOMATLIGI

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining ijtimoiy-tibbiy gazetasi



30-
noyabr
2022-yil
chorshanba

№11 (15)

E'tirof

ILMIY SALOHIYAT VA YUKSAK BILIM EGASI



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tibbiyot xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra, Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining ovqatlanish, bolalar va o'smirlar gigienasi kafedrasida mudiri Manzuraxon Djaloldinovna Ashurova "Sog'lom turmush" medali bilan taqdirlandi.

Manzuraxon Ashurova Farg'ona tumanida, ziyolilar oilasida tavallud topdi. O'rta maktabni tamomlab, Toshkent davlat tibbiyot institutiga o'qishga kirdi. 1992 yili institutni muvaffaqiyatli tugatgach, Farg'ona Davlat universiteti "Anatomiya va gistologiya" kafedrasida assistent vazifasida ish boshladi. So'ngra II-Toshkent Davlat tibbiyot instituti Farg'ona filiali "1-gigiena" kafedrasida katta o'qituvchisi bo'lib, o'z faoliyatini davom ettirdi. 2005 yili "Azotli ma'danli o'g'itlar ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlovchilar salomatligiga ishlab chiqarish va ijtimoiy omillarning ta'siri" mavzusida nomzodlik dissertatsiyani himoya qildi.

Tibbiyot fanlari nomzodi bo'lgan M.Ashurova Fidoyi va malakali xodim sifatida mamlakatimiz sog'liqni saqlash tizimida samarali mehnat qilib, jamoatchilik hamda hamkasblari orasida hurmat qozonmoqda. Olima ayol amalga oshirilayotgan sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar hamda sog'lom, barkamol, yetuk yosh avlodni tarbiyalash borasida olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning faol targ'ibotchilaridan sanaladi.

Hozirgi kunda M.Ashurova 70 dan ortiq ilmiy maqolalar, shundan Impakt faktor va SCOPUS bazasida 3 ta maqola chop ettirgan. U monografiya, o'quv qo'llanma, uslubiy ko'rsatma va 30 dan ziyod o'quv uslubiy qo'llanmalar muallifi, 4 ta elektron dastur uchun guvohnoma olgan. Xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlari ishtirokchisidir. Olima tomonidan "Reproduktiv salomatlikka ta'sir etuvchi xavfli omillarning organizmga ta'sirini baholash va uni prognozlash maqsadida aholi reproduktiv salomatligini aniqlashning elektron dasturi" yaratildi.

M.D.Ashurova jamoat ishlarida faol ishtirok etib, 2008 yildan buyon institut ilmiy kengashi kotibi lavozimida ishlamoqda. O'zbekiston ekologik partiyasidan saylangan Farg'ona shahar kengashi deputati Manzuraxon koronavirus pandemiyasi davrida aholi bandligini ta'minlash va daromadi keskin kamayishining oldini olish, muhtoj oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etib kelmoqda. Shahardagi 23-saylov okrugi hududidan jami 2 ming 254 nafar 30 yoshdan yuqori xotin-qizlar xatlovdan o'tkazildi, ularning 127 nafari "Ayollar daftari"ga 9 ta toifada kiritildi, shahar aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda ham deputatlik nazoratini amalga oshirib kelmoqda.

Yil yakunlariga ko'ra M.Ashurova viloyat miqyosida "Yilning eng faol olimi ayoli" nominatsiyasi g'olibi, «O'zbekiston ayollarining 100 ta eng yaxshi innovatsion loyihasi» II-Respublika tanlovi g'olibi bo'ldi.

Ha, o'z kasbiga chin dildan mehr qo'ygan Manzuraxon namunali oila bekasi, o'zi istiqomat qiladigan mahallada mehribonligi, jamoat ishlariga jonkuyarligi bilan hurmat va e'tiborga sazovor bo'lmoqda. Biz ilmiy salohiyat va yuksak bilim egasi Manzuraxon Ashurovani davlatimizning yuksak mukofoti "Sog'lom turmush" medali bilan chin dildan samimiy tabriklab, kelgusi ishlarida zafarlar tilaymiz.

I.ABDUJABBOROVA.



Yurtboshimiz qarori bilan 2020-yilda Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti tashkil etildi. Endi biz talabalarining kelajakdagi maqsadi, ilm fan-tibbiyot sohasida yetuk marralarni qo'lga kiritib, malakali mutaxassis bo'lib yetishish ekan, demak astoydil bilim olishimiz kerak bo'ladi. Albatta, buning uchun institutimizda keng ko'lami ishlar olib borilmoqda. Institutimiz qaytadan rekonstruksiya qilindi. Zamonaviy talablarga mos keladigan tibbiy anjom-asboblari va zamonaviy texnika apparatlari olib kelindi. Bu kabi ishlarining davomi sifatida men yana shuni aytishim mumkinki, rektorimiz Akmal Sidikov jahon standartlari talablariga javob bera oladigan yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda astoydil bel bog'lagan, shuningdek, ta'lim-tarbiya sohasini yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan tarixiy ahamiyatga ega vazifalarni bajarib kelmoqda. Shuningdek, talabalarining xorijda tajriba va bilimlarini oshirishga qaratilgan an'analarga amal qilgan holda, institut o'zining ko'plab hamkor oliygohlari bilan talabalar almashinuvi dasturlarida faol ishtirok etmoqda.

Oliygox talabalari nomidan bir vakil sifatida shuni ayta olamanki, bizga yaratilgan mana shunday imkoniyatlardan oqilona foydalanib, yurtboshimiz, rektorimiz va bizga ta'lim berib kelayotgan professor ustozlar ishonchini oqlashga va'da beraman.

Farg'onalik ekanligimdan, qolaversa, mana shunday institutda ta'lim olayotganimdan faxrlanaman!

OLYGOHIM BILAN FAXRLANAMAN!



Jamshid USMONOV,
davolash ishi fakulteti,
3-kurs talabasi.

Hafta yakuni

BAYRAM BAHONA PALOV TAYYORLANDI



Yurtimizda davlat rahbari tashabbusi bilan o'tgan yildan e'tiboran "Xalqaro bag'rikenglik kuni"ga bag'ishlangan madaniy-ma'rifiy tadbirlar haftaligi o'ziga xos an'ana ko'rinishini olayotgani joylarda aholi, ayniqsa, yosh avlodni, oliygohda o'qiyotgan turli millat va elat vakillarining tili, madaniyati, an'analari va urf-odatlarini saqlash hamda rivojlantirishga, jamiyatda ko'p millatli katta oila tuyg'usini, millatlararo totuvlik hamda diniy bag'rikenglikni yanada mustahkamlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Bayram munosabati bilan talabalar turar joyida o'ziga xos tadbir bo'lib o'tdi.

Dastlab turi millat vakillari o'zaro birgalikda ko'rgazmalar va turli xil o'yinlar tashkillandi. So'ngra talabalar birgalikda o'zbek milliy taomlaridan biri – palov tayyorlashdi. Tadbir bir piyola choy ustida qizg'in suhbat bilan davom etdi.

REKTOR TALABALAR BILAN UCHRASHDI

Institut rektori Akmal Sidikov oliygoh majlisleri zalida navbatdagi "Rektor va talabalar uchrashuvi"ni o'tkazdi.



Uchrashuv Davolash ishi fakulteti 2-3-bosqich talabalari ishtirokida tashkil etildi. Shuningdek, tashabbusi bilan Tashkent tibbiyot akademiyasi vakillari, institut o'quv ishlari bo'yicha prorektori, professor-o'qituvchilar va tyutorlar ishtirok etdilar.

Ochiq muloqot, samimiy davra suhbat shaklida o'tkazilgan uchrashuvda talabalar o'quv jarayonlarida duch kelayotgan kamchiliklar, talab va takliflar muhokama qilindi. Shu bilan birga yaqinlashib kelayotgan imtihonlar haqida suhbat qurildi va ushbu imtihonlar shaffof shaklda o'tkazilishi alohida ta'kidlandi.

Yana bir yangilik, Toshkent tibbiyot akademiyasi bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash maqsadida talabalarni o'qitishda akademik mobillikni yo'lga qo'yish taklifi ham aytib o'tildi.

Fakultetda "Rektor va talabalar uchrashuvi" davom etmoqda.

**Tyutorlar
faoliyatidan:**

BESH TASHABBUS YOSHLARGA QANOT

Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti dekan o'rinbosari O.Tuychibayeva va tyutorlar tomonidan Besh muhim tashabbusning sport yo'nalishi bo'yicha talabalar o'rtasida futbol musobaqasi o'tkazildi.

Murosasiz va qizg'in tarzda o'tgan musobaqa talabalarga o'zgacha zavq va maroq bag'ishladi. Shuningdek, musobaqa g'oliblari va faol ishtirokchilari faxriy yorliq bilan taqdirlandilar.



KEKSALARIMIZ DOIMO E'ZOZDA

"Davolash ishi" fakul'teti tashabbusi bilan "Mehrl qo'llar" haftaligi joriy etildi.



5622-Pediatrya yo'nalishi guruh talabalari fakultet tyutorlari bilan birgalikda Farg'ona shahridagi Yangi Turon ko'chasi 123-A xonadonida istiqomat qilayotgan 2-guruh nogironi, yolg'iz ona Saodatxon Normirzayeva xonadonida, pediatriya yo'nalishi 1-bosqich talabalari Matbuot ko'chasida yashovchi otaxon Ravil Karimulinning xonadonida bo'lib, uning xolidan xabar olinib, sovg'alar hadya qilindi. Shuningdek, Quvasoy ko'chasi hamda Shakarqishloq MFY da yashovchi bir qator ijtimoiy himoyaga muhtoj keksalarimiz qalbiga quvonch ulashdilar va duolarini oldilar.

— "Mehrl qo'llar" haftaligi doirasida viloyat nogironligi bor shaxslarni rehabilitatsiya qilish va sog'lomlashtirish markazida ham bo'ldik, — deydi tyutor D. Xabibullayev. — Talabalarimiz insult xastaligi bilan davolanayotgan yolg'iz nuroniy, birinchi guruh nogironi Usmonjon ota Akramov va ikkinchi guruh nogironi Valijon ota Haydarovlar bilan uchrashib, ularning ko'nglini olishga harakat qildik.

Samimiy suhbat davomida talabalarimiz tashrifidan quvongan otaxonlar ko'zlarida yosh qalqidi, yoshlarni qayta-qayta duo qildilar.

Uchrashuvlar yakunida barchaning dili nurafshon bo'ldi. Ko'ngillarga nur ulashish, ko'ngillarni obod qilish har birimizning insoniylik farzimizdir.

BIZ OITSGA QARSHIMIZ!

1-dekabr – Butunjahon OITSGa qarshi kurash kuni munosabati bilan travmatologiya kafedrasidan "Biz OITSGa qarshimiz" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.



Tashabbusi bilan talabalar tomonidan mazkur kasallik, uning belgilari, sabablari haqida tushunchalar berib o'tildi. Mavzuga oid ko'rgazmali ma'ruzalar va kichik sahna ko'rinishi namoyish etildi.

Gigiena qoidalariga rioya qilmaslik hamda turli ahloqsiz odatlar OITS kasalligiga sabab bo'lishi hamda beparvolik sabab inson o'z umriga zomin bo'lishi, talabalar ijrosida, ushbu sahna ko'rinishida yig'ilganlarga havola etildi.

1-dekabr – Butunjahon OITSGa qarshi kurash kunini sayyoramiz bo'ylab keng nishonlashdan maqsad insoniyatning ushbu global tibbiy-ijtimoiy muammoga e'tiborini yana bir karra jalb etish, bunday kasallikdan aziyat chekayotgan bemorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashdir.

O'QUVCHILAR BILIMI OSHIRILDI



Marg'ilon shahridagi 24-umumta'lim maktabida bitiruvchi sinf o'quvchilari o'rtasida kimyo fanidan ochiq dars bo'lib o'tdi. Mashg'ulotda akademik litsey va texnikumlarga metodik yordam berish sektori bosh mutaxassisi N.Shokirova hamda institut "Tibbiy va biologik kimyo" kafedrasidan professor-o'qituvchilari ishtirok etdi.

Dars jarayonida esa o'quvchilarga bilim samaradorligini oshirish va oliy ta'limga yo'naltirish uchun tegishli tushunchalar berildi. Shu bilan birga kelgusida shifokor bo'lishni istagan o'quvchi yoshlar, institut professor-o'qituvchilaridan maslahat va tavsiyalar olishlari mumkinligi ta'kidlandi.

M. DEHQONOVA.

“SOG‘LOM HAYOT” SAHIFASI

USHBU SAHIFADA FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTINING MALAKALI, PROFESSOR-O‘QITUVCHILARI, SHIFOKORLARINING TIBBIYOT BILAN BOG‘LIQ URF-ODAT VA QADRIYATLAR, XALQ TABOBATI, AHOLI SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISH VA TURLI KASALLIKLARNI OLDINI OLISH MAVZULARIDAGI MAQOLALARI KENG YORITIB BORILADI.



Sarvinoz RASULJONOVA,
Xalqaro fakul'tet, davolash ishi
2-kurs, 11-guruh talabasi.

Haddan tashqari soch to'kilishi turli omillarga bog'liq bo'lishi mumkin.



Jumladan:

- Vitamin yetishmasligi.
- Stress.
- Sochni noto'g'ri parvarish qilish.
- Ehtimol, tug'ruqdan keyin tanani gormonal qayta qurish.
- Yoki aytaylik, genetik omillar.
- Kasallik yoki ba'zi dori-darmonlarni qabul qilish oqibatlar.

Biroq, soch to'kilishining o'zi odatiy holdir. Har bir sochning o'ziga xos hayot aylanishi bor. Tsikl oxirida sochlar o'ladi. Shunday qilib, kuniga 50 dan 150 gacha sochni yo'qotishingiz mumkin. Soch to'kilishi kuchayganini payqadingizmi? Shunday qilib, o'ylash vaqti keldi.

Sochingiz to'kilyaptimi?

Sinalgan 3 ta tavsiya



SOCH TO'KILISHINI QANDAY TO'XTATISH KERAK?

1-QADAM: SOCH TO'KILISHI NORMALMI YOKI YO'QLIGINI ANIQLANG

Birinchidan, siz kun davomida tushgan sochlarni hisoblashingiz kerak. Ularning soni 100-150 dan oshadimi? Bu shuni anglatadiki, yo'qotish odatdagidan ko'proq. Ba'zan, agar sochlar uzun bo'lsa, u juda ko'p to'kilganga o'xshaydi. Bu haqiqatan ham shundaymi yoki yo'qligini hisoblash muhimdir.

Ikkinchidan, kichik testni o'tkazish mumkin. Bu soch follikulalarining mustahkamligini baholashga yordam beradi. Buning uchun har bir qo'lda keng soch tolasini oling. Keyin ularni torting. Sinov paytida 10 dan ortiq soch tushdimi? Ehtimol, trixologga murojaat qilish kerak.

2-QADAM: SOCH TO'KILISHIDAN UY SHAROITIDA PARVARISH QILISHNI TANLANG.

Buning uchun, avvalo, sog'lom turmush tarziga rioya qilish va to'g'ri ovqatlanish zarur. Unutmang, sochlarning to'kilish muammosini maxsus shampun, vitamin-mineralli komplekslar va shu kabi qo'shimcha vositalar yordamida hal qilish ijobiy samara beradi.

Shuningdek, shampunni soch turiga qarab tanlash maqsadga muvofiq. Undan so'ng maxsus tekislovchi vositalardan foydalaning.

3-QADAM: ASOSIY SABABNI ANIQLASH JUDA MUHIMDIR

Shunday qilib, soch to'kilishining dastlabki belgilari aniqlandi. Asosiy parvarish tanlangan. Siz allaqachon soch to'kilishini qanday to'xtatish masalasini hal qilishning yarmidasiz.

Trixolog yoki dermatolog bilan uchrashing. Mutaxassis sizni umumiy qon tahliliga yuborishi mumkin. Va tahlil natijalariga ko'ra, ehtimol u qo'shimcha tavsiyalar va davolanishni buyuradi. Shifokorlardan olingan ko'rsatmalarga aniq rioya qilish muhimdir. Shunday qilib, ortiqcha soch to'kilishini yo'q qilishingiz mumkin. Axir, bu tez, ammo qisqa muddatli natijaga erishishdan ko'ra muhimroqdir.

Soch va bosh terisini parvarish qilish uchun uy sharoitida davolanish usullaridan foydalanmoqchimisiz?

Niqobni tayyorlash uchun sizga bir osh qoshiq Kastor yog'i kerak. Uni bir necha osh qoshiq kefir bilan aralashtiring. Bunga bir choy qoshiq glitserin qo'shing. Keyin aralashmani soch ildizlariga teng ravishda qo'llashingiz kerak, niqobni bir yarim soat davomida qoldirish tavsiya etiladi. Jarayon bosh terisini chuqur oziqlantirishga yordam beradi.



XAMIRTURISHLI NIQOB RETSEPTI:

Ozroq xamirturishni iliq sut bilan suyultiring. Aralashmaga bir choy qoshiq asal qo'shing. Niqobni soch ildizlariga surting. Bir soatdan keyin boshingizni shampun bilan yaxshilab yuvib tashlang.

Soch to'kilishiga nima yordam beradi: xna bilan niqob.

Bir osh qoshiq xna uchun sizga yarim osh qoshiq asal kerak bo'ladi. Ushbu ingredientlarga ozgina romashka yoki qichitqi o'tini qo'shish tavsiya etiladi. Shuningdek, sizning sevimli efir moyingizdan bir necha tomchi. Niqobni sochlaringizga 40 daqiqa davomida qo'llang.

Tanishing, hamkasbingiz!

JAVLONBEKNING "SHUHRAT" I

Xabaringiz bor, "Tibbiyot xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni e'lon qilindi. Unga ko'ra, viloyatimizda faoliyat olib borayotgan 5 nafar shifokorlarimiz e'tirof etildi. Ularning orasida viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi bo'lim mudiri Javlonbek Mo'ydinov ham bor.



Bugungi kunga qadar shifokor tomonidan 2 oylikdan 18 yoshgacha yuragida tug'ma nuqsoni bo'lgan 1000 nafardan ortiq bemorlarda jarrohlik amaliyoti o'tkazilib, sog'lomlashtirish muolajalari olib borilmoqda.



J. Mo'ydinov 2004-2011-yillari Andijon davlat tibbiyot instituti, 2011-2013-yillari Rossiya federatsiyasi Moskva shahridagi A.N. Bakulov nomli yurak-qon tomir jarrohlik ilmiy markazi klinik ordenaturasida tahsil oldi. So'ngra Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasi yurak qon-tomir jarrohlik kardioxirurgi, 2016-2018-yillari viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi kardioxirurgi va 2020-yildan bo'lim mudiri vazifalarida samarali mehnat qilmoqda.

Javlonbek o'z malakasini oshirishga intiladi, tirishqoq, mehnatsevar, o'z ustida izlanadi. Halollik, kamsuqumlik, kasbiga mehr va sadoqat tuyg'ulari uning yuksak fazilatlaridan biridir. 2014-2015-yillarda Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasida

akademik V.V. Vohidov nomidagi Respublika ilmiy tekshirish markazi professorlari tomonidan o'tkazilgan mahorat darslarida faol qatnashgan. Unda 65 nafar bemorlarda "Mitral va aortal klapan" qo'yish va "Yurak tug'ma nuqsoni qorinchalararo devor defekti va Tetrado Fallo" tashxisi bilan jarrohlik amaliyotlari bajarilgan. 2016-yili esa viloyatda ilk bor murakkab turdagi ko'p komponentli tug'ma yurak nuqsonlarining radikal va palliativ jarrohlik amaliyotini o'tkazgan. 2017-yil Moskva shahridagi Bakulev nomidagi yurak qon-tomir jarrohligi ilmiy markazi professori S. Gorbachevskiy bilan ilk bor ochiq usulda sun'iy qon aylanish sharoitida 4 nafar bemor bolalarda jarrohlik amaliyoti o'tkazadi.

Yaqinda bo'lib o'tgan tibbiyot xodimlari kasb bayrami arafasida Prezidentimiz farmoniga ko'ra viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazining kardioxirurgiya bo'limi mudiri Javlonbek Ibrohimovich Mo'ydinov "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi. Mukofot muborak bo'lsin!

I. ABDUJABBOV.



Bilasizmi?

Horij tibbiyoti:

BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARI

Birlashgan Arab Amirliklari shifoxonalardagi yuqori standartlar bo'yicha nafaqat Yaqin Sharq, balki butun dunyoda eng oldi o'rinlarda turadi.

Bu mamlakat yashash va ishlash uchun qulay. Agar siz sohangizning yetuk mutaxassisi bo'lsangiz, yaxshi maosh va yaxshi sharoitda hayot kechira olasiz.

Tibbiyot sohasida sizdan katta mas'uliyat va tajriba talab qilinadi. Va albatta ingliz tilini puxta bilishingiz shart.

Bu yerda xalqaro tajribaga juda katta e'tibor qaratishadi. Shuning uchun Britaniya, Italiya, Germaniya, Fransiya kabi mamlakatlarda ishlagan mutaxassislar faoliyat yuritishadi.

Bu mamlakatda shifokorlar uchun kategoriyaga bo'linadi: Umumiy amaliyot shifokorlari, tor sohadagi mutaxassislar va konsultantlar. Shuningdek, aksar shifokorlar – migrantlar.

Tibbiyot sohasida BAA qisqa vaqt ichida juda katta yutuqlarga erishdi. Bu yerda yuqori nufuzga va tajribaga ega shifoxonalar ochildi, faoliyat yuritaypti.



Foto: twitter.com/ahmad_chabanari

Mamlakatda g'arb taomlari kirib kelishi oqibatida semizlik va qand kasalligi avjiga chiqdi. Hozirda aholining qariyb 20 foizi qand kasalligiga chalingan. Sog'liqni saqlash mas'ullari buni o'z vaqtida bartaraf etish va kamaytirish uchun ishlar olib bormoqda.

Birlashgan Arab Amirliklarida tibbiyot juda qimmat. Turistlarda tibbiy sug'urta bo'lmasa, yanada qimmat. Bu yerda oddiyroq kasal bo'lsangiz ham, oddiygina dorini ham reseptsiz ololmaysiz. O'zbekistonda hamshiralarni chaqirib, uyda ukol olishingiz mumkin. Lekin bunday davolanishlar

BAAda noqonuniy hisoblanadi. Kasal bo'lsangiz, shifoxonaga borib muolaja olishingiz shart. Bemorlarning uyiga borib ularni davolash mumkin emas. Qonunni chetlab o'tib, kimnidir davolaydigan bo'lsa, litsenziyadan ayriladi.

Mamlakatda ish joyingiz bilan berilgan shartnoma asosida sizga 2 yil muddatga viza beriladi. Shifokorlarga alohida qonun chiqarilib, 10 yillik golden viza beriladigan bo'ldi.

BAAda shifokorlarni tahqirlash, kamsitish, hatto jismoniy tazyiqlar o'tkazishga juda jiddiy qarashadi. Masalan, tibbiyot xodimiga shapaloq urib yuborgan inson 6 yilga qamalgan.

Bu yerda siz o'zingizni kamsitilgandek his qilmaysiz. Chunki 200 dan ziyod millat yashaydi va ishlaydi. Qonunni barcha hurmat qiladi, amal qiladi. Hamma bir-biriga yaxshi munosabatda bo'ladi. Mutaxassislar bu yerda juda e'zozda.

"UzbekLife" loyihasi doirasida yozilgan materialdan foydalanildi.



Foto: news.myseldon.com

JAMOAT SALOMATLIGI

MUASSIS:
Farg'ona jamoat
salomatligi tibbiyot
instituti

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
Farg'ona viloyati hududiy
boshqarmasi tomonidan
6-sentabr 2021-yil №12-132 raqam
bilan ro'yxatga olingan.

BOSH MUHARRIR:
Akmal SIDIKOV
NASHR UCHUN MAS'UL
I. ABDUJABBOV

Qog'oz bichimi: A-3
Oyda bir marta o'zbek tilida
chop etiladi

TAHRIRIYAT MANZILI:
150105, Farg'ona shahar,
Yangi Turon ko'chasi, 2-uy
Tel.: (73) 243-06-62
(94) 444-91-76

fmioz@mail.ru | fjsti.uz



GAZETA BEPUL
TARQATILADI

Gazeta «ZAKOVAT NASHRIYOT UYI» MCHJ
bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.

BOSMAXONA MANZILI:
Kosonsoy shahri, Chorbog' ko'chasi, 17-uy.
Bosmaxonaga 29.10.2022 yil, soat 16 00 da
topshirildi. Topshirish vaqti: 17:00

Buyurtma:

Adadi: 500